

MEDIA MULOQOT, MEDIALINGVISTIKA, MEDIAMATN – VIRTUAL OLAMNING ASOSI

Tursunova Shohsanam Botirjon qizi

FDU magistranti, tursunovashohsanam1992@gmail.com

ARTICLE INFO.

Keywords: Virtual Olamning Asosi, Media Muloqot.

Annotatsiya

Ushbu maqolada internetning imkoniyatlari bu orqali axborot almashish va muloqot qilishning samarali usullari shu bilan birgalikda media muloqot doirasida medialingvistikaning ahamiyati ham media matn tushunchasining ommaga kirib borishi va bu virtual muloqotning yangi yo'nalishi ekanligi, internet muloqoti inson omili va jamiyat taraqqiyoti uchun sezilarli ta'sirga ega bo'lgan yetakchi fenomeniga aylanganligi haqidagi ma'lumotlar berilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

Internet- butundunyo va insoniyat uchun ochiq to'plam hisoblanib, bu ma'lumot tarqalishida asosiy o'rin egallaydi. Internet tarmog'ini minglab akademik, davlat, tijorat va xonadon tarmoqlari tashkil etadi. Internet — katta (global) va kichik (lokal) kompyuter tarmoqlarini o'zaro bog'lovchi butunjahon kompyuter tizimi. Unda geografik o'rni, zamon va makondan qat'iy nazar, ayrim kompyuter va mayda tarmoqlar o'zaro hamkorlikda global informatsiya infratuzilmasini tashkil etadi. Qaydnomalar tizimi bilan boshqariladigan barcha hosila tarmoqlar hamkorlikda iste'molchilarga ma'lumotni saqlash, e'lon qilish, jo'natish, qabul qilish, izlash va ma'lum bo'lgan barcha variantlar (matn, tovush, videotasvir, fotosurat, grafika, musiqa tarzida va b. ko'rinishlar) da axborot almashinishga imkon yaratadi.

Kognitivlik esa nutqning ichki xususiyati sifatida Internet muloqotida uzatilayotgan axborotni inson ongi qay darajada qabul qilishi jarayonini ta'minlaydi. Internet muloqotining tez fursatlarda asosiy fenomeniga aylanishi foydalanuvchilar tomonidan axborotni idrok etishini optimallashtirishga qaratilgan jarayonlarni tadqiq qilish zarurati paydo bo'ldi. Shu paytgacha radio va televideniya qo'llanib kelingan ko'p o'lchovli mediamatnning Internet makonida istalgan kommunikator tomonidan erkin foydalanilayotgani Internet muloqoti matnlarini zamonaviy tahlil metodlari asosida o'rganish mediamatnning kompozitsion xususiyatlarini ham hisobga olishni nazarda tutadi.

Turli semiotik tizimlarga oid lingvistik va paralingvistik vositalar uyg'unligini anglatuvchi Internet muloqotining zamonaviy shakllari semiotik murakkablashgan, noan'anaviy, aralash, polikodli, kreollashgan yoki kreolitik, ko'p tarkibli matn kabi terminlar bilan ifodalanmoqda. S.Ya. Koltisheva, ye.V.Gorina, O.A. Nikitina, O.A. Gudkova, F. ZanderE.Yu. Raspopina, ye.N.Galichkina,E.E. Anisimova, A.A.Bernatskaya, N.D. Siganova, Yu.A.Sorokin, ye.F.Tarasov, L.V.Dubovitskaya va boshqalar kreollashgan matn, L.L.Sandler, ye.V.Babich, V.A.Sensova, A.S.Bovshik, L.S.Bolshakovalar polikodli matn atamalarini qo'llaydilar. Ko'rinib turibdiki, virtual olamning inson va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatini o'rganish masalasi tilshunoslar, psixologlar, sotsiologlar uchun ham birday

ahamiyatlidir. O'zbek tilshunosligiga esa bu tushuncha endigina kirib kelmoqda¹.

Shu o'rinda bir narsani aytib o'tish kerakki, yuqoridagi atamalarga yaqin bo'lgan gipermatn tushunchasi butunlay boshqa hodisani nazarda tutadi. «Ko'p o'lchovli makonda maxsus havola bilan nohiziqli shaklda bog'lanish orqali boshqa manbaga ulanish»². Bu borada olimlar ko'p izlanishlar olib bordilar va 1989 yilda T. Berners-Li html (HTML – Hypertext Mark Up Language), ya'ni gipermatnni belgilash tilini ishlab chiqdi va boshqa manbaga murojaat qilishning qulay usulini yaratdi. Bu jarayonni yozma matnli kitob o'qiyotib, kerakli joyda qo'shimcha lug'atmi yoki shunga o'xshash boshqa kitobdan ma'lumot qidirishga o'xshatish mumkin.

Keling, internetning imkoniyatlariga bir nazar tashlaylik. Internet tarmog'ida esa buni birgina havola orqali amalga oshirish mumkin. Gap shundaki, axborot olishning eng qulay vositasi va giperbaza manbai sifatida Internet tarmog'i juda katta imkoniyatlarga ega. Jumladan, matn ustida ishlayotgan foydalanuvchi maxsus havolalar orqali lug'at, elektron kitob kabi boshqa axborot makoniga kirib, undan o'zini qiziqtirayotgan mavzu doirasida yetarlicha axborot olish imkoniga ega. Bu esa talabalar, muayyan soha vakillari yoki izlanuvchilar uchun juda qulay bo'lgan imkoniyat hisoblanadi. Shunday qilib, aralash semiotik matn (axborot) bilan gipermatn tushunchalari boshqa-boshqa jarayonlarni ifodalaydi. Antropotsentrik munosabatlarning yangi bosqichi - (virtual) kommunikativ makon – Internet muloqotining kommunikativ-semiotik parametrlari axborot uzatishning semiotik xususiyatlari va funksiyalaridagi o'zgarishlarni o'rganishni taqozo etadi.

Zamonaviy texnik baza virtual muloqotning o'ziga xos xususiyatlarini shakllantirish, muloqot maydoni imkoniyatlarining kengayishiga olib keldi va buning natijasida axborot tashuvchisi muloqot uzatuvchilaridan biriga aylandi. Maxsus kommunikatsiya kanali bir-biridan uzoqda bo'lgan kommunikatorlar o'rtasida muloqot o'rnatish imkonini beradi. Suhbatdoshlar orasida kamida ikkita kompyuter (yoki telefon) va ma'lum miqdordagi elementlardan tashkil topgan tarmoq mavjud. Adresant tomonidan matn, rasm, audio yoki videofayl sifatida kiritilgan ma'lumotlar kodlanadi va raqamli texnik tarmoq orqali uzatiladi, so'ngra adresat kompyuteri (telefoni) da yana asl nusxada dekodlanadi. Shunday qilib, elektron kommunikatsiya vositachiligi elektron substratning xususiyatini belgilaydi³.

«Virtual muloqot nutq xususiyatini o'zgartirdi – harf va so'zlar, tovush va tasvirlar, inson tanasi va narsalar raqamlarga almashtirildi, shuning uchun ham ular virtual va shuning uchun ham ular shunday o'ziga xos imkoniyatlarga ega»⁴.

Belgining semiotik xususiyatlari virtual muloqotdagi matn kreolizatsiyasi mohiyati va intensivligining o'zgarishida namoyon bo'ladi. Kreolizatsiya - bu lingvistik va paralingvistik vositalar kombinatsiyasi. Multimedia komponentlarining muloqot jarayonida qo'llanishi bilan kreolizatsiya darajasi, substrat imkoniyatlari tobora ortib bormoqda.

Rossiyada «**Medialingvistika**» Xalqaro ilmiy jurnalining ta'sis etilishi ham fikrimizning yorqin isbotidir. «Medialingvistika» ilmiy jurnalida olimlarning yangi va istiqbolli ilmiy yo'nalishga oid umumiy nazariy muammolar, mass-mediada lingvistik vositalarning o'rni va roli, medianutq tipologiyasi, media tilini qiyosiy o'rganish va boshqalar bo'yicha maqolalar chop etiladi. Jurnal

¹ Шахобиддинова Ш. Креолизация – матнни психоллингвистик шакллантиришусулисифатида // Хорижийтилларниўргаништарихи, бугуниваистикболи. Худудийилмий-амалиянжуманматериаллари. – Андижон, 2016. – Б.34-35; Абдуллаев Б.Х. Ўзбекрекламалингвистикаси: назарияваамалиёт. Филол. фан бўйичафалс. д-ри ...дисс. – Андижон, 2020. – 141 б.

² Лутовинова О.В. Гипертекст: понятие, основные характеристики, возможные подходы к лингвистическому анализу // <https://cyberleninka.ru/article/n/gipertekst>

³ Алтухова Т.В., Лебедева Н.Б. Виртуальное общение: новый этап развития письменной коммуникации // Вестник. – КемГУ, 2012. – №1 (49). [URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/virtualnoe-obschenie-novyy-etap-razvitiya-pismennoy-kommunikatsii> (дата обращения: 09.01.2021).]

⁴ Галкин Д. Виртуальный дискурс в культуре постмодерна. // Критика и семиотика. – Новосибирс, 2000. – Вып. № 1-2. – С. 26-34

tilshunoslikning bir bo'lagi sifatida shakllanayotgan zamonaviy medialingvistika holatini yetarli darajada aks ettirish, OAV va, umuman, media tiliga oid eng qiziqarli va muhim ilmiy yondashuvlarni to'liq yoritishni o'z zimmasiga oladi. Jurnal nafaqat Rossiya, balki Belorusiya, Bolgariya, Xitoy, Polsha, Turkiya, Ukraina ilmiy jamoalarining nufuzli vakillari bilan ham hamkorlik qiladi.⁵ O'zbek tilshunos olimlarimiz ham ushbu jurnal tahririyati bilan hamkorlikni yo'lga qo'ysalar, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Medialingvistika doirasida mediamatnlar yaratish va tarqatishning tarkibiy qismlari va darajalari barcha lingvistik va ekstralingvistik omillar: lingvistik-format xususiyatlari, funksional janrlar tasnifi, fonologik, sintagmatik, uslubiy va interpretatsion xususiyatlari, madaniy belgilari, g'oyaviy modalligi, pragmalingvistik qiymati bo'yicha birikuvidagi ommaviy muloqot usullarining ta'siri kabi qator masalalar tahlil qilinishi mumkin. Medialingvistikaning metodologik asosi mediamatnlar doirasida qo'llanadigan diskursiv tahlil, kontent tahlil, kognitiv lingvistika, tanqidiy tahlil, funksional stilistika, lingvokulturologiya kabi barcha yo'nalishlarning yutuqlarini o'zida birlashtiradi⁶. Shu tariqa, zamonaviy mediamatnlarning yetakchi lingvopragmatik xususiyatlarini o'rganish uchun juda samarali tahlil maydoni shakllandi.

Medialingvistikaning yetakchi ob'ekti bo'lgan mediamatn – bu lingvistik va media xususiyatlarining dialektik birligi bo'lib, til birliklari, grafik tasvir, audio va videotasvir kabi semiotik belgilar uyg'unligida yaratiladigan muloqot materialini hisoblanadi va u mediadiskursda aktuallashadi. Ya'ni, matn – diskurs mahsuli, mediamatn – mediadiskurs birligi sifatida qaraladi va ana shu to'rt tushuncha o'rtasidagi bir-birini to'ldiruvchi va farqli jihatlariga e'tibor qaratiladi.

«Mediamatn» atamasini ilk bor T.G.Dobrosklonskaya o'zining «Voprosy izucheniya mediatekstov: Opyt issledovaniya sovremennoy angliyskoy mediarechi» («Mediamatn tadqiqi masalalari: hozirgi zamon ingliz medianutqi tadqiqi tajribasidan») asarida qo'llagan.⁷

Binobarin, matn tushunchasining an'anaviy ob'ekti doirasi kengayib, turli semiotik belgilarga oid birliklarning semantik jihatdan o'zaro bog'liqligi asosidagi yaxlitlik sifatida yangidan-yangi cheksiz imkoniyatlarga ega bo'ldi. «Televideniye paydo bo'lgunga qadar axborot uzatish jarayonida noverbal vositalarning ishtirok etishi amalda deyarli yo'q edi. Kommunikator tomonidan qo'llangan bu usullar berilgan ma'lumotning adresat tomonidan o'zlashtirilishini birmuncha osonlashtirdi.»⁸ Internet tarmog'i shakllanishi bilan esa esa bu jarayon shaxslararo muloqot doirasiga ham kirib bordi.

«**Mediamatn**» atamasi bir-birining o'rnini bosa oladigan parallel yoki o'zaro kesishadigan hodisalar - *ommaviy-kommunikativ matn, ommaviy axborot vositalari matni, publitsistik matn, jurnalistik matn, gazeta matni, telematn, reklama matni, RR-matn, internet matni* va hokazo. Shuni ta'kidlash kerakki, «**media**» atamasining semantik tarkibi (lotincha «media», «medium» - usul, vosita) har qanday axborot vositasi - toshga o'yib ishlangan rasmlar, an'anaviy kitoblar, badiiy asarlardan tortib texnik taraqqiyotning eng ilg'or zamonaviy hodisalarigacha mediamatn deb atashga imkon beradi»⁹. Shu bilan birga, M.Yu.Kazak umumlashtiruvchi atama sifatida ommaviy axborot vositalari matnlariga nisbatan

⁵ <https://medialing.ru>

⁶ Таюпова О.И., Бычкова Н.В. Медиалингвистика как современное научное направление. // LiberalArtsinRussia. 2014. – Vol. 3. No. 1. – P. 610-616.

⁷ Добросклонская Т.Г. Вопросы изучения медиа текстов: Опыт исследования современной английской медиа речи. – М.: МАКС Пресс, 2000. – С.288.

⁸ Каримов С. Ўзбек тили функционал стилистикаси. Монография. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2010. – С.56.

⁹ Казак М.Ю. Специфика современного медиатекста. // Лингвистика речи. Медиастилистика: кол. моногр., посвящ. 80-летию проф. Г.Я. Солганика. – Москва: 2012. – С.320-334; Добросклонская Т.Г. Вопросы изучения медиа текстов: Опыт исследования современной английской медиа речи. – М.: МАКС Пресс, 2000; Муратова Н. Журналистика медиа вахборотсавадхонлиги. –Тошкент: Vaktriapress, 2019; Бакиева Г.Х., Тешабаева Д.М. Медиаматн. – Тошкент: 2019.

qo'llash odatga aylangan¹⁰ligini ham ta'kidlab o'tadi.

Ko'rinadiki, M.Yu.Kazak mediamatn atamasida, umuman, illyustrativ namoyish etiluvchi, yanayam aniqrog'i, o'qish, ko'rish va eshitish orqali qabul qilinadigan axborot uzatuvchi barcha vositalarni umumlashtiradi. Darhaqiqat, bir necha ming yillar ilgari tosh va qoyalarga o'yib ishlangan rasm va yozuvlar o'sha davr kishilari hayoti haqida ma'lumot beruvchi tarixiy manbalar sifatida e'tirof etiladi yoki oddiy bosma manbalar - kitob, gazeta, jurnal ham ko'rish funksiyasi orqali, radio qurilmalari esa eshitish orqali axborot uzatuvchi vosita hisoblanadi. Biroq, bugungi kunda «media» mahsuloti deganda, asosan, audiovizual vositalar anglashiladi. Aytish mumkinki, leksemaning semiotik maydoni torayishi hodisasi yuz bergan, ya'ni vosita sifatida faqat texnik imkoniyatlar nazarda tutiladi.

Mediamatn media va verbal matnlarni birlashtiradi, unda tilning murakkab tabiati (ijodiy material), shaxsning lisoniy qobiliyati, bosma nashr, televizion kanal, radiostansiyaga oid vosita va imkoniyatlarni birlashtiradi¹¹.

Bugunga kelib, mediaolam, ya'ni «ommiy kommunikatsiya vositalari» talqini sezilarli darajada kengayib bordiki, endi tadqiqotchi yoki o'quvchini to'liq qondira olmaydi. Lotinchadan inglizchaga o'tgan «medium» atamasi endi shunchaki «usul», «vosita» ma'nosida tushunilmaydi, chunki endi «axborot tashuvchi» ma'nosi ustuvor. Shuning uchun ham *media* atamasining texnologik vosita sifatidagi ifodasi faol qo'llanmoqda. U tashuvchilar (ular orqali uzatiladi), taqdimot shakllari (kitob, kasseta, kino, radio va televizion dasturlar, elektron pochta, umuman Internet, bosma nashr, blog) va boshqalarning umumiy mazmunini anglatadi. Ayniqsa, ichki bo'linuvchi tarmoqlar broadcasting (efirga uzatiladigan yoki elektron media) va print media (matbuot, bosma OAV), shuningdek, *blogosfera va ijtimoiy tarmoqlar*, ya'ni bilim va axborot uzatishni birlashtiruvchi xususiyatiga ega bo'lgan juda keng maydon yoki **mediaviylikdir**¹².

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Internet muloqoti diskursi an'anaviy muloqot turlarini zamonaviy ilmiy-texnik tamoyillar va imkoniyatlar asosida rivojlantirdi, jumladan, internet tarmog'idagi yozma nutqiy faoliyat muqarrar ravishda og'zaki nutq bilan bog'liq bo'lib, fonetik, morfologik va sintaktik birliklarda adabiy til me'yorlaridan chekinish, qisqartmalar, noadabiy qatlamga xos so'z boyligi, shuningdek, tarmoqning maxsus grafik dizayni kabilar virtual muloqotning yangi yo'nalishini aks ettiradi, hamda inson omili va jamiyat taraqqiyoti uchun sezilarli ta'sirga ega bo'lgan yetakchi fenomenga aylanib ulgurdi

¹⁰ Современный медиатекст: учебное пособие / отв. ред. Н.А. Кузьмина. – Омск: 2011. – С.414.

¹¹ Чернышова Т.В. Модель когнитивно-речевого взаимодействия в сфере массовой газетной коммуникации: детерминационные факторы // Жанры и типы текста в научном и медийном дискурсе / под ред. А.Г.Пастухова. – Орел, 2008. – С. 237.

¹² Пастухов А.Г. О границах медиа: новые медиа и новая медийная культура. /Ученые записки Орловского государственного университета. 2015. – №1 (64). – С. 182-188.